



YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINI O‘QITISHDA INTERAKTIV  
O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Keldiboyeva Shaxnoza Sherpulat qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti 4 - kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yordamchi so‘z turkumlarini (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama) o‘qitishda interaktiv o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati, samaradorligi hamda amaliy metodlari yoritiladi. O‘quvchilarning faolligini oshirish, mavzuni chuqur o‘zlashtirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda interaktiv yondashuvlarning o‘rni tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** yordamchi so‘z turkumi, ko‘makchi, yordamchi, bog‘lovchi, interaktiv, innovatsion yondashuv, didaktik o‘yinlar, zamonaviy pedagogika.

Hozirgi zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish, ularni darsga jalb qilish va bilimlarni samarali o‘zlashtirish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, ona tili darslarida nazariy bilimlarni qiziqarli shaklda yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Yordamchi so‘z turkumlari (ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalar) o‘ziga xos murakkabligi sababli o‘quvchilar uchun biroz qiyinchilik tug‘diradi. Shu bois, ularni o‘qitishda interaktiv o‘yinlardan foydalanish samarali metodlardan biri hisoblanadi.

So‘zning grammatik ma‘nolar va ularni ifodalovchi vositalar morfologiya bo‘limida o‘rganiladi. So‘zlar ma‘lum so‘roqqa javob bo‘lish yoki bo‘lmasligiga, atash ma‘nosining mavjudligi yoki mavjud bo‘lmasligiga, shuningdek, gapda ma‘lum gap bo‘lagi vazifasida kelish kelmasligiga ko‘ra mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga ajratiladi [1]. Bunda ot, sifat, son, fe‘l, ravish va olmoshlar mustaqil so‘z turkumlariga; yuklama, bog‘lovchi, ko‘makchilar esa yordamchi so‘z turkumlariga bo‘linadi. Yuqorida berilgan qoidaga izoh beradigan bo‘lsak, birinchidan, mustaqil so‘z turkumlari ma‘lum so‘roqqa javob bo‘ladi. Masalan, ot so‘z turkumi kim?, nima?, qayer? so‘roqlariga, sifat so‘z turkumi qanday?, qanaqa?, qaysi?, son so‘z turkumi nechta?, nechanchi?, qancha?, fe‘l so‘z turkumi nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? va hokazolar. Xullas, mustaqil so‘z turkumlari biror so‘roqqa javob bo‘la oladi. Yordamchi so‘z turkumlariga esa hech qanday so‘roq bera olmaymiz. Negaki, unda so‘roqqa javob bera oladigan lug‘aviy (atash) ma‘no mavjud emas. Ammo shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, yordamchi so‘zlar so‘roq olmoshlariga qo‘shilib gapda so‘roq so‘zlarni hosil bo‘lishida yordam beradi. Masalan, nima uchun?, nima maqsadda?, nima sababdan?, kim uchun?, kim tufayli?, kim sababli?, qay yo‘sinda?, qanday qilib? va hokazolar.

Atash ma‘nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko‘ra so‘zlarning mustaqil yoki yordamchilarga ajralishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ot so‘z turkumiga lug‘aviy ma‘no mavjud [1]. Masalan, uy, piyola, qalamdon so‘zlari misolida olib qaraydigan bo‘lsak, uy - so‘zining lug‘aviy ma‘nosi yashash uchun mo‘ljallangan buyum. Piyola esa ichimlik ichish uchun yasalgan idish. Qalamdon – qalamlarni solishga mo‘ljallangan buyum.

Yordamchi so‘z turkumlarida esa lug‘aviy ma‘no mavjud emas. Shuningdek, yordamchi so‘z turkumlari gapda hech qanday gap bo‘lagi vazifasida kela olmaydi, ammo



o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda gap bo'lagi bo'lib kela olishi mumkin [3]. Masalan, Sanobar achingani uchun gapirdi. Sardor singlisi Guli uchun chiroli ko'ylak olib keldi [2].

Bunda birinchi gapda uchun ko'makchisi o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda sabab holi vazifasida kelgan bo'lsa, ikkinchi gapda to'ldiruvchi vazifasida kelyapti.

Yordamchi so'z turkumlari haqida yana shuni aytib o'tish mumkinki, ularda grammatik ma'no mavjud, grammatik vazifa mavjud, grammatik shakl mavjud [3].

Shuningdek, gaplarni o'zaro bog'laydi, so'zlarni o'zaro bog'laydi, qo'shimcha ma'no yuklaydi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar bilan qo'shimchalar oralig'ida turgan grammatik vositalardir. Yordamchi so'zlar quyidagilar:

1. Bog'lovchi
2. Ko'makchi
3. Yuklama

Yettinchi sinf ona tili darsligida "Yordamchi so'zlar" mavzusi keng va murakkab berilgan. Jumladan "Yordamchi so'zlar" mavzusida faqat qoida va bajarish uchun mashqlar berilganligini ko'rish mumkin: "So'zlar ma'lum so'roqqa javob bo'lish yoki bo'lmasligiga ko'ra, atash ma'nosining mavjudligi yoki mavjud bo'lmasligiga ko'ra, shuningdek, gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida kelish kelmasligiga ko'ra mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ajratiladi" [4].

Shuning uchun o'quvchilarga mavzuni oson va tushunarli tarzda tushuntirish uchun interfaol metodlar va interaktiv o'yinlardan foydalanish zarur.

Interaktiv o'yinlarning ahamiyati

Interaktiv o'yinlar:

o'quvchilarni darsga jalb qiladi;

mavzuni oson va qiziqarli tushunishga yordam beradi;

mustaqil fikrlash va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi;

jamoada ishlash malakasini shakllantiradi

Interaktiv metodlarning afzalliklari

Nazariy bilim amaliyot bilan mustahkamlanadi;

O'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi;

Individual va guruhli ishlash uyg'unlashadi;

Dars jarayoni jonlanadi.

Quyida "Do'stingni top" o'yinining tashkil etilish jarayonini ko'rib o'tamiz.

"Do'stingni top" o'yini

Dastlab o'qituvchi kartichkalarga yordamchi so'z turkumlari (yuklama, ko'makchi, bog'lovchi)ni yozib chiqadi. So'ng o'quvchilarga aralash qilib tarqatadi va 5 daqiqa vaqt beradi. O'quvchilar bu vaqt ichida o'z do'stlarini topishlari lozim ya'ni yuklamalar yuklamani, bog'lovchilar bog'lovchini, ko'makchilar esa ko'makchini topshi kerak. Natijada 3 ta do'stlar guruhi shakllanadi. O'qituvchi do'stlar guruhini tekshirib chiqadi, agar to'g'ri shakllantirilgan bo'lsa, turli sovg'alar bilan rag'batlantiriladi. Bu o'yinning afzalligi shundaki, o'quvchilar uzoq vaqt bitta joyda o'tirib zerikishadi, darsga bo'lgan e'tibori sustlashadi. Bu metodni qo'llasa, o'quvchilar mavzuni oson tushunadi va jismoniy



harakat qilib faollashadi. Sinfda o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat va do'stlik aloqalari mustahkamlanadi.

Bu o'yinni yana quydagi shaklda ham qo'llash mumkin:

O'qituvchi varaqchalarga gaplarning so'zlarini tushurib yozib tayyorlab oladi.

O'quvchilarni 2 guruhga ajratib nomlab oladi. Har ikkala guruhlariga gaplar yozilgan varaqlar va tushib qoldirilgan so'zlar yozilgan varaqlar aralsh holatda berib chiqiladi. So'ng "Zukkolar" guruhi gapni o'qiydi, "Bilimdonlar" guruhidan o'sha gapning jufti ya'ni tushirib qoldirilgan so'zni o'qilishi kerak. Keyingi safar "Bilimdonlar" guruhi gapni o'qiydi, "Zukkolar" guruhi o'sha gapning jufti ya'ni tushirib qoldirilgan so'zni o'qilishi kerak bo'ladi. Shu tarzda davom ettiriladi, o'qituvchi esa nazorat qilib boradi va to'g'ri javoblar soniga qarab baholab boradi. G'olib bo'lgan jamoa sovg'alar bilan tag'dirlanadi.

Gap	Jufti	Guruhlar
Men <u>do'kondan</u> <u>olma...</u> <u>nok oldim.</u>	<u>hamda</u>	"Zukkolar" guruhi
<u>Bog'ga dadam...</u> <u>men</u> <u>boardik.</u>	<u>va</u>	"Bilimdonlar" guruhi
<u>U maktab ...</u> <u>ketdi.</u>	<u>tomon</u>	"Zukkolar" guruhi
<u>Sen ham kelding...</u> ?	<u>-mi</u>	"Bilimdonlar" guruhi
Bu <u>dunyoda onam ...</u> <u>mehribon</u> <u>zotni</u> <u>ko'rmadim.</u>	<u>kabi</u>	"Zukkolar" guruhi
<u>Vatan ...</u> <u>jonim fido.</u>	<u>uchun</u>	"Bilimdonlar" guruhi

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yordamchi so'z turkumlarini o'qitishda interaktiv o'yinlardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu usullar orqali o'quvchilar mavzuni nafaqat tushunadi, balki uni amaliyotda qo'llashni ham o'rganadi. Shuning uchun zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida interaktiv metod va o'yinlardan keng foydalanishi zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi.
2. Asadov T. Ona tili. Usuliy qo'llanma. Buxoro: "Buxoro", 2012, 86 b.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabieva D. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. Toshkent: Sharq, 2001. 164 b.
4. Mirzaev M. Hozirgi zamon o'zbek tili. Mashqlar to'plami. Toshkent, 1963. 143 b.
5. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabieva D. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. Toshkent: Sharq, 2001. 164 b.